

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Bitiruv malakaviy
ishni tayyorlash va unga
qo'yiladigan talablar

(uslubiy ko'rsatma)

N A V O I Y - 2008

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar bo'yicha uslubiy tavsiyalar.

Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy shahri, 2008-yil. 20 bet.

Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar bo'yicha tayyorlangan ushbu uslubiy ko'rsatma Davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan bo'lib, unda oily o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va uni rasmiylashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Bundan ixtisoslik kafedralari va bitiruvchi kurs talabalari foydalanishalari mumkin.

Tuzuvchilar: f.f.n. B. Zaripov
f.f.n. S. Jumayeva

Taqrizchi: f.f.d. N. Murodova

Uslubiy ko'rsatma O'zbek filologiyasi fakulteti ilmiy uslubiy kengash yig'ilishining 2007 yil 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan.

*O'quv dasturlari va programmalarini
zamonaviy talablarga moslashtirib,
istiqbol va kelajagimizni ko'zlagan
holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz
zarur...*

Islom Karimov.

«Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishni bajarishga qo'yiladigan talablar» haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998yil 31 dekabrdagi №362 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq bitiruv malakaviy ishni bajarish oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishni bajarish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

1. Ta'lim bo'yicha nazariy va Amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;
2. Ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

3. Zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorligini ta'minlash.

Bakalavr bitiruv malakaviy ishi tanlangan mavzu bo'yicha bakalavrlik tadqiqoti natijalarini aks ettiruvchi ichki yaxlitlikka ega bo'lgan ilmiy yoki ilmiy-amaliy mazmunli tadqiqotdir.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan va oliy o'quv yurti yoki fakultet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir martadan ortiq ko'rib chiqilmaydi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Talabalarga bitiruv malakaviy ishlar mavzularini tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun to'lov-kontrakt mablag'ini to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan

belgilanadi. Topshiriq bitiruv malakaviy ishi bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Bitiruv malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki boshqa muassasa va korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari :

- topshiriq beradi;
- bitiruv malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyot, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talaba bilan muntazam ravishda konsultatsiya o'tkazadi;
- ishning bajarilish jarayonini nazorat qiladi;
- talaba bajargan bitiruv malakaviy ishining sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishiga va ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Bitiruv malakaviy ishi rahbarining taklifiga binoan kafedra bitiruv malakaviy ishiga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt byudjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlar taklif qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining bo'limlari bo'yicha konsultantlar etib oliy o'quv yurtining professor va yetuk dotsentlari, yetakchi va katta ilmiy xodimlari, shuningdek korxonalarning yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin.

Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar.

Bitiruv malakaviy ishi berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi. Bitiruv malakaviy ishining har bir bo'limi asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Bitiruv malakaviy ishida ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning ishlari aks ettirilishi hamda ulardan foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi rahbari va mutaxassislik kafedrası mudiri talabaning mualliflik huquqini ta'minlashlari lozim.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy darajasi o'qitish dasturiga javob berishi lozim. Ushbu ishning bajarilishi talabaning mustaqil ravishda ilmiy tadqiqot olib borishga, qat'iy muammolarni ko'rishga o'rganganligidan va ularni yechishning umumiy metodlarini bilishidan dalolat berishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:

- 1.Sarvaraq.
- 2.Mundarija.
3. Kirish.
- 4.Asosiy qism.
- 5.Xulosa va takliflar.
- 6.Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Sarvaraq (1-ilova) tadqiqotning birinchi beti hisoblanadi va qat'iy qoidalar asosida to'ldiriladi. Sarvaraقدan keyin ishning mundarijasi joylashtiriladi.

Mundarijada boblar, paragraflar va bitiruv malakaviy ishining barcha boshqa qismlari asosiy matndagi sarlavhalar va bet raqamlaridan

boshqacha shaklda yoki izchillikda yoxud qisqartirib berilishi mumkin emas. Mundarijadagi sarlavhalar asosiy matndagi sarlavhalar bilan bir xilda bo'lishi shart. Demak, boblar va paragraflar nomi, shuningdek, ularning izchilligi tadqiqot matni bilan to'liq mos kelishi shart.

Kirishda mavzuning dolzarbligini asoslash, tadqiqotda ko'rib chiqilgan muammolar, maqsad va vazifalar aks ettirilishi kerak. Ushbu ma'lumotlar ishning barcha qismlarida bir xillikdagi izchillikda berilishi lozim. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida quyidagilar beriladi:

1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.
2. Mavzuning o'rganilganlik darajasi.
3. Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.
4. Tadqiqotning ilmiy yangiligi.
5. Tadqiqotning manbalari.
6. Tadqiqotning metodologik asosi va ilmiy metodi.
7. Tadqiqotning ilmiy yoki amaliy ahamiyati.
8. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.

(2- ilovaga qarang)

Asosiy qism bitiruv malakaviy ishining mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda bu qismga jadvallar, rasmlar, eskizlar, diagramma va boshqalar, shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborot yozilgan disketlar ilova etilishi mumkin. Ilovalar ishning umumiy hajmiga kiritilmaydi.

Asosiy qism qo'l yozmada rasmiylashtiriladi. Bu qism kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi.

Xulosa qismi bitiruv malakaviy ishi umumiy hajmining 10-15% ini tashkil qiladi. Tadqiqotning ayrim boblari ham xulosalar va takliflar

bilan tugallanishi mumkin, ammo ulardan eng muhimlari ishning oxirida, ya'ni xulosa bo'limida aks ettirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida foydalanilmagan hamda asosiy matnda havola qilinmagan manbalar kiritilmaydi.

Adabiyotlarni ko'rsatishda quyidagilar e'tiborga olinishi shart:

- foydalanilgan adabiyotning ro'yxat bo'yicha tartib raqami;
- muallifning familiyasi, ismi va nasabi;
- monografiyaning nomi;
- nashr qilingan joyning nomi;
- nashriyot nomi;
- chop etilgan yili;
- qancha betdan iboratligi.

Masalan,

1. Abdug'afurov A. Buyuk beshlik saboqlari: Maqolalar. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – 184 b.

Foydalanilgan adabiyotlar bibliografik ro'yxati quyidagi tartibda keltirilishi lozim:

- I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari.
- II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari.
- III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
- IV. Harflar ketma-ketligida joylashgan maxsus adabiyotlar.
- V. Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar.
- VI. Statistik materiallar va statistik to'plamlarning materiallari.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar bitiruv

malakaviy ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, tadqiqotni o'z taqrizi (2 nusxada) bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi.

Ilmiy rahbar taqrizida quyidagilar yoritiladi:

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining kafedra ilmiy yo'nalishiga bog'liqligi;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotchining ilmiy ishga qobiliyati va moyilligi bo'yicha qisqacha tavsif;
- xulosalar sifati;
- tadqiqotning bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Kafedra ishni taqrizchiga yuboradi, tashqi taqrizchi boshqa oliy o'quv yurtlarining professorlari yoki yetuk dotsentlari, ilmiy tadqiqot institutlarining yetakchi yoki katta ilmiy xodimlari, korxonalarning yetakchi mutaxassislari bo'ladi.

Tashqi taqrizda quyidagilar yoritiladi:

- bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi;
- tadqiqot yangiligining asoslanganligi;
- ishning ilmiy va amaliy ahamiyati;
- tadqiqotning mazmuni va tugallanganligining tanqidiy bahosi;
- materialni bayon etish tili va uslubi;
- tadqiqotning bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan DAK da himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra mudiri talabaning bitiruv malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas, deb hisoblasa, masala kafedra majlisida, ilmiy rahbarning ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi. Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomida belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishining ochiq himoyasini o'tkazish tartibi.

Bitiruv malakaviy ishi himoyasi ilmiy munozara xarakterida bo'lib, ochiq tarzda, o'ta talabchanlik va qat'iyat bilan ilmiy muloqot odobiga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Bunda bitiruv malakaviy ishidagi barcha ilmiy, amaliy xulosalar hamda tavsiyalar har tomonlama asoslanishi, ishonchliligi har tomonlama tahlil qilinishi shart.

DAK ning yig'ilishiga raislik qiluvchi dissertatsiyaning himoyasi haqida e'lon qilgach, mavzuning nomi, muallifning ism-familiyasi, shuningdek, boshqa zaruriy hujjatlarning mavjudligi haqida axborot hamda talabaning mavzu yuzasidan chop etilgan (agar bor bo'lsa) maqolalari va boshqalar to'g'risida qisqacha ma'lumot beradi.

So'ng ilmiy tadqiqotning asosiy natijalarini bayon qilish uchun so'z talabaning o'ziga beriladi. U avvaldan tayyorlab qo'yilgan o'zinig yuqori darajadagi nazariy tayyorgarlikka ega ekanligini, o'tkazilgan

tadqiqotning asosiy ilmiy natijalarini tushuntirib bera olish qobiliyati va mahoratini namoyish etishga qaratilgan nutqi matnini o'qib beradi.

Talaba ma'ruzasidan so'ng raislik qiluvchi rasmiy taqrizchining bajarilgan tadqiqotga bergan taqrizini o'qib beradi. Taqrizda ko'rsatilgan taklif va mulohazalarga o'z munosabatini bildirish, savollarga javob berish uchun talabaga so'z beradi.

Shundan so'ng, faqat DAK a'zolari va tinglovchilar ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan muhokama va ilmiy munozara boshlanadi. DAK a'zolari talaba tadqiqotiga daxldor bo'lgan muammolar, tadqiqot usullari bo'yicha istalgan savollarni og'zaki tarzda berib, tadqiqot jarayoni va bajarilgan amaliy ishlar natijalarini aniqlashlari mumkin.

Beriladigan javoblar masalaning mohiyatiga taalluqli bo'lishi kerak. Talaba o'zining ilmiy natijalarini kamtarlik bilan baholashi, berilgan savollarga xushmuomalalik bilan javob berishi lozim. Munozara tugagandan so'ng talaba xohishiga ko'ra unga yakunlovchi so'z beriladi.

DAK a'zolarining yopiq yig'ilishida himoya yakuni ko'rib chiqiladi va uni baholash to'g'risida qaror qilinadi. Mazkur qaror hay'at a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

So'ng DAK raisi barcha ishtirokchilarga bahoni ma'lum qiladi va yig'ilishni yopiq deb e'lon qiladi.

Dastlabki himoyadan o'tmagan yoki himoyaga tavsiya etilmagan har qanday tadqiqot «TUGALLANMAGAN» deb, shuningdek, dastlabki himoyadan o'tgan, biroq ochiq himoyadan chetlatilgan tadqiqot «HIMOYA QILINMAGAN» deb hisoblanadi. Bitiruv

malakaviy ishini vaqtida himoya qilolmagan talaba 3 yil ichida himoya qilish huquqi bilan o'qishdan chetlashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ish himoyadan so'ng kamida o'n yil oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha bitiruv malakaviy ishni boshqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lganda (tadbiq etish, tanlovlar va hokazo) ishdan nusxa olinadi va ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi.

1-ilova

O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi
Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek filologiyasi fakulteti
bitiruvchisi *Ochilova Dilnozaning*
“Hibat ul-haqoyiq” badiiyati masalasi
mavzuida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

F.f.n. S.Jumayeva

Navoiy-2008

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati bilan boshqa sohalar qatori ma'naviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlarga, yangilanishlarga keng yo'l ochildi. Milliy qadriyatlar, tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlash, ma'naviy yuksalish bilan bog'liq ushbu jarayonda adabiy merosning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu borada o'z fikrini shunday bildiradi:

«...Eng muhim vazifa shundan iboratki, o'zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab yanada boyitishimiz, ulug' ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo'lmog'imiz darkor»¹. O'zbek xalqi adabiy merosi nihoyatda boy va rang-barang bo'lib, u turli zamonlarda yaratilgan xalq og'zaki ijodi, bitiklar, nazm va nasr namunalarini o'z ichiga oladi. Mustaqilligimizning bizga bergan keng imkoniyatlaridan biri uzoq tarixga ega bo'lgan boy adabiy, madaniy va ma'naviy merosimizni to'la tadqiq va tahlil qilishga yo'l ochishdir. Shu bois mumtoz adabiyotimizning muhim tarkibiy qismi bo'lgan, diniy-tasavvufiy ijod namunalari, shungdek, islomiy g'oyalarga tayanib yaratilgan asarlar ham to'g'ri bahosini ola boshladi. Akademik Aziz Qayumov yozganidek, XI asrda hozirgi O'rta Osiyo yerida qoraxoniylar davlati bo'lgan. Qoraxoniylar davlati ma'lum iqtisodiy va madaniy yuksalishni vujudga keltirgan. Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'atit-turk», Yusuf Xos

¹ Karimov I. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz. Toshkent, 2001. 12-bet.

Hojibning «Qutadg' u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» kabi o'lmas obidalari ana shu hukmronlik davrida yaratildi.

Ahmad Yugnakiyning hayoti va ijodi o'zbek, usmonli turk, rus va boshqa xalqlar olimlari tomonidan ma'lum darajada tadqiq qilingan. Adabiyotshunoslikda uning tarjimai holi va bizgacha yetib kelgan yagona asari «Hibat ul-haqoyiq»ni ilmiy jihatdan o'rgangan ishlar talaygina. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishini «Hibat ul-haqoyiq» asarining g'oyaviy va badiiy xususiyatlarini yoritishga bag'ishladik.

Turkiy xalqlar islomni qabul qilgach, turkiy til fors va arab adabiyotlaridan yanada ta'sirlanib, umumiy mavzular, o'xshash shakl, usul va uslublarga ega bo'ldi. Lekin bu jarayonda shunchaki o'rganish va taqlidchilik ro'y bermadi. Har bir xalq o'zining tabiiy rivojlanish yo'llariga ega bo'lganidek, har bir adabiyot ham o'z qiyofasini namoyon qila oldi. Buni faqat g'oya va obrazlar olamida emas, balki badiiy tasvir usullari va mahoratda ham kuzatish mumkin. Bu holat bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, asarning topilishi va dastlabki nashri turk olimi Najib Osimbiy nomi bilan bog'liq. O'zbekistondak bu ishni birinchi marta Abdurauf Fitrat boshlab bergan. Fitrat o'sha davrning eng ommabop jurnali «Maorif va o'qitg'uvchi»da «Aybatul aqoyiq» nomli maqolasini e'lon qildi². Ushbu maqolada Fitrat o'zbek kitobxoni Ahmad Yugnakiy haqida yaxshi

² Fitrat. Aybat ul-aqoyiq.// Maorif va o'qitg'uvchi.1928-yil. 10-son.

ma'lumotga ega bo'lmaganligi uchun eng avvalo, adibning tarjimai holiga katta e'tibor qaratadi.

Bir muncha muddat O'zbekistonda yashab, ilmiy tadqiqot olib borgan rus sharqshunosi E.E.Bertelsning «Ahmad Yugnakiy va «Hibat ul-haqoyiq» nomli maqolasida asarning leksik, fonetik, grammatik jihatlari yoritib berilgan edi³.

Taniqli adabiyotshunos olim Natan Mallayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» kitobida «Hibat ul-haqoyiq»ning g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan⁴.

Filologiya fanlari doktori Q. Mahmudovning «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida» deb nomlangan monografiyasida asarning yozilish davri, asosiy g'oyasi va muallifi haqida fikr yuritilgan⁵.

Mustaqillik yillarida bu asarni keng va chuqur o'rganish, tahlil qilishga katta e'tibor berila boshlandi. Tadqiqotchi Gulchehra Xo'janovanning olib borgan ilmiy izlanishlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Tadqiqotchi «Hibat ul-haqoyiq»ning nusxa va nashrlariga, islomiy g'oyalariga, tasavvufiy asoslari hamda badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratadi⁶.

Ko'rinadiki, asarning badiiyati, uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bo'yicha olib borish mumkin bo'lgan tahlillar anchagina. Ushbu bitiruv malakaviy ishi ana shu sohadagi masalalarni o'rganishga bag'ishlangan.

³ Ma'lumot uchun qarang. Xo'janova G. «Hibat ul-haqoyiq» haqiqatlari. Toshkent, 2001-yil. 16-bet.

⁴ Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976-yil. 138-150 -betlar.

⁵ Mahmudov Q. «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida». Toshkent, 1972-yil.

⁶ Xo'janova G. Ko'rsatilgan asar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi «Hibat ul-haqoyiq» asarining badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratish, qo'llanilgan she'riy san'atlarni aniqlash, badiiy san'atlar qo'llanilgan she'riy misralarni tahlil qilishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- «Hibat ul-haqoyiq» asarida ishlatilgan badiiy tasvir usullarini tadqiq etish;
- «Hibat ul-haqoyiq» asarida ishlatilgan badiiy san'atlarni aniqlash;
- «Hibat ul-haqoyiq» asaridagi badiiy san'at turlarini tahlil qilish;
- «Hibat ul-haqoyiq» asaridagi badiiy san'atlarni boshqa dostonlar badiiy xususiyatlariga qiyosan o'rganish;
- «Hibat ul-haqoyiq» asaridagi badiiy xususiyatlarni boshqa asarlarga ta'sirini o'rganish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining natijalari hamda ilmiy xulosalari o'zbek mumtoz adabiyotida badiiyat masalasi yuzasidan tadqiqot yaratish uchun muhim bo'lgan nazakriy xulosalarni berishi mumkin. Ishda Ahmad YUgnakiy tomonidan qo'llanilgan juda ko'plab xalqona tashbehtar, obraz va detallar, badiiy san'atlar tahlil qilindiki, bu shoir poetik mahoratini yanada kengroqitish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy xulosalaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi fanidan Yugnakiy poetikasi bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlarda ma'ruza matnlari tuzishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko'ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik:

1.Ahmad Yugnakiy. «Hibat ul- haqoyiq». Toshkent 1971-yil. Nashrga tayyorlovchi va so'z boshi muallifi Q. Mahmudov.

2. Ahmad Yugnakiy. «Hibat ul- haqoyiq». / Qadimgi hikmatlar. Toshkent, 1987-yil.Tuzuvchi Nasimxon Rahmonov.

Tadqiqotning metodologik asosi va ilmiy metodi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasi va adabiy-madaniy meros hamda ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. SHuningdek, ishning maqsad va avzifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Tadqiqotda qo'yilgan masalalarni yoritishda N.Mallayev, Q.Mahmudov, I.Haqqulov, G.Xo'janova singari olimlarning ilmiy fikr va xulosalariga tayandik.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. «Hibat ul haqoyiq» asarining badiiy xususiyatlari birinchi marta bitiruv malakaviy ish sifatida o'rganilayotgani ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi. Asardagi badiiy tasvir usullari, she'riy san'atlar, ulardan foydalanishda shoir mahoratini

yoritib berish bo'yicha qilingan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi bitiruv malakaviy ishining ilmiy qimmatini oshiradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, to'rt faslni o'z ichiga olgan ikki bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 109 bet.

